

Qizil xona. Jozibali kitob javoni. Ingliz yozuvchisi Sharlotta Brontening "Jeyn Eyr" romani. Javon meni o'ziga doim tortib turadi. Unga qarab yurmoqqa chog'lansam, devordagi "Duel" deb nomlangan suvrat hamisha meni to'xtatib qoladi. U javondan kuchli. Qor. U qanchalik oppoq bo'lmasin daraxtlarning kuyib, qora kuyuk bo'lgan shox- larini yopolmagan. Shoxlar yirtilgan yeng ichidan chiqqan, daryo bilan osmonga ko'tarilgan chandiqli qo'llarday Chanada yotgani yarador, yarador etilgan jon. Ketayotgan qotil. Negadir ikki ko'zi orqasida, negadir qordagi izlari bilinar-bilinmas, uni g'oliblik emas, qo'rquv, vahima itarib ketayotganday. Qorga sochilgan qon sovqotayotgan chechaklar

Bu "Duel" emas, yuragimdagi Pushkinning ilk suvrati edi. O'zim bilan birga bu suvrat ulg'aya boshladi. Yo'q, tirila boshladi.

Pushkin shoir.

Dantes farangi.

Pushkin she'r yozadi.

Dantes yoza olmaydi.

Dantes Pushkinni yomon ko'radi. O'zi she'r yoza olmagan uchun bir kuyadi.

Pushkin bo'la olmaganidan ikki kuyadi.

Shu hasad uning qonini buzadi, yovuzga aylantiradi. Shoirni duelga chaqiradi. Naq qornini ko'zlab, o'q uzadi. Negadir gap

Pushkinning qorniga borib taqalsa, ko'nglim g'ash bo'ladi. Shoirni qorni borligi menga yoqimsiz tuyuladi.

O'sha paytda men hali Goncharovani tanimasdim. Pushkinni seva-seva ulug' muhabbat ichida u bilan ham tanishib oldim.

Xullas, men o'zimning Pushkinimni "Duel"da o'lim onida topdim. Bu o'lim yolg'iz uniki emas edi

- Sen tasavvur qil, deya hayajon bilan hayajonimni yana kuchaytirardi onam. Unga o'q otdilar. Yiqildi. Lekin yuragi chiqib

ketmadi. "Balli, azamat!" dedi. Pichirlab emas, ehtiros bilan aytdi. Shu turishda unda Afrika uyg'ongan edi. Qasoskorlik shiddati janub quyoshi yangli o'tli edi. Sovuq emas edi u. Onamning yotog'i. Uning o'lim, fojia haqidagi so'zlaridan oppoq pardalarga qora rang sachraydi. Pardalar, uy, hatto, onamning ovozi qorayadi. Pushkin dunyoda men tanigan Birinchi shoir edi. Mening shoirimni o'ldirdilar. Shu lahzalardan boshlab go'dakligim, bolaligim, yoshligim umr fasllarimga tinimsiz o'qlar otildi. Go'dakligim yarador, bolaligim, yoshligim yarador.

Dunyo men uchun ikkiga bo'lindi. Eng ulkan bo'lagi Pushkin edi dunyoning. Qolgan bo'lagi boshqalar. "Sen menikisan", deb shivirladim o'sha Pushkinli dunyoga. Yuragim zirqirab-zirqirab ketdi. Ko'zlarimdan yosh tirqiradi. Men kichginagina jonim bilan o'z-o'zimmikiga aylanib bo'lgan bo'lakni himoya qilishga chog'landim.

Uyimizda odamning ko'rgisi keladigan, ko'rmasa yuragi orziqadigan uchta kartina bor edi:

"Iso payg'ambarning xalq oldidagi chiqishi".

"Tatarlar".

"Duel".

"Tatarlar" derazasiz uyda oq ustunlar orasida turib, o'z yo'lboshchilarini qatl qilishayapti. "Duel"da ham o'lim manzarasi. Shu ikki kartinaga uzoq termulib tursam, boshlar birlashadi, qo'llar, oyoqlar ham. Bahaybat odamga aylanadi. U o'z joniga qasd qilayotganga, o'ziga o'zi xiyonat etayotganga o'xshaydi. Qotillarni devordan haydab tushirib, hammasini yerda cho'zilib qolguncha quvlardim. Qora terga botib, halloslab yana kartinaga qarasam voajab, haligina chanada osmonga termulib yotgan behush Pushkin yo dorda sollangan tatar yo'lboshchi yonida yana boshdan-oyoq qop-qora kiyingan qotillar g'imirlab yurishardi

* * *

Pushkin chinakam habash edi. Ikki chekkasidagi bakenbardning o'ziyoq uning habash ekanligini ming karra isbotlab turardi. (Chunki bu bakenbard degani yo generalda yo habashda bo'ladi, vassalom). Sochlari jip-jingalak. Lablari qalin. Qora ko'zlarida ba'zan ko'kish uchqunlar sochib qoladi. Habash nima bo'lgandayam habash-da. Shunday deb ba'zan yuragimda bahaybat bir shirin azobga aylangan sevgimga suv sepib, sovutmoqchi bo'lardim. Ammo qaerga borsam u yo'limdan chiqardi. Onam bizni ko'pincha Aleksandrov rastasida sayr qildirardi. Bu yerda suvi qurib qolgan favvoralar qotib turishardi. Qiziq, ularga qarab qachonlardir kamalakdan belbog' bog'lab osmonga otilgan favvoralar emas, Pushkinni o'ylayverardim. U haqidagi xotiram yolg'iz o'zimmiki ekaniga unchalik ishonmasdim. Bu olov bobomdan otamga, otamdan menga meros o'tganday, hech qachon zanjirsimon xotiraning biron halqasi bir joyda uzilib qolmagandek tuyulardi.

Yodimning to'lqinsimon alangasi aro Pushkin hamisha eng balandga qalqib, suzib chiqaverardi. Qo'lida bosh kiyimini ushlab, xiyol egilgan kuyi xayolchan turardi doim.

Xotiramdagi shoirga qanchalik bino qo'ygan bo'lsam Pushkin haykaliga ham shu qadar bino qo'yardim. Qor, yomg'irlar ostida bir xilda mag'rur, boshi tik turishiga qarab: "Battar bo'llaring, u turaveradi! Yomg'ir qamchilasa nima? Qor bo'ronini yuborsa nima?" derdim. O'z ovozimdan rohatlanardim. Rossiyaning oqliklarini yelkasida ko'tarib turgan qora Afrika, derdim ba'zan.

Asya ikkovimizga shu joyda yugurish sayrimizning eng ko'ngilli lahzalari edi. Kim Pushkinga birinchi bo'lib yetib keladi? Biz birinchi bo'lib Pushkin haykaliga qo'l tekkizish uchun halloslab chopardik. Va birinchi bo'lganimiz kun bo'yi shu baxtdan mast yurardik. G'olibga yetar odam bo'lmasdi.

Men Pushkin haykaliga doim qulochimni yozganimcha borardim. Uni quchib aylanaverardim. Boshim mutlaqo aylanmasdi, ko'zim sira tinmasdim. Goh unga ko'zimni qisardim, sho'xchan xoxolardim. Bir oyoqda hakkalardim. Yiqilib tushmaslikka jon-jahdim bilan erinardim.

O'sha paytda, Moskvada, chinni qo'g'irchoqlar, haykalchalarimni Pushkinning qadrond oyoqlari ostiga tizib chiqardim. Bir marta bo'lsa-da, mittigina o'yinchoqlarimni oyoqlar atrofiga yurgizardim. Men Pushkin kichraymaydi deb o'ylardim. Tobora ulkanlashib, balandlab borardim. Men uning oyoq ostiga qaramasligidan, egilmasligi, hamisha tikligidan yuz chandon, ming chandon suyunib irg'ishlardim.

Men Pushkin haykaliga qarab, oq va qora ranglar barcha ranglarning sultonini ekanini his etdim. Zarif, nafis oq rang. Ulkan, kuchli qora rang. Men qorani tanladim, qorani sevdim. Chunki unda hayot va haqiqat bor edi. Pushkin haykali sirli dunyo, men uning o'quvchisi edim. Boshidan oyog'igacha mum haykalchalarni qatorlashtirib qo'ysam, nechta haykalcha kerak bo'larkin? Miyamda shunday savol kelgan zahoti: "Qancha bo'lsayam, yetmaydi", deya qat'iy javob qaytarardim.

O'yinchoqlarimning egasi - men, mening egam esa - Pushkin, degan xayolimdan zarracha xijolat tortmasdim. Aksincha, bu tasavvur o'zimga behad yoqimli edi. Ayniqsa, o'zimning jonsiz emas, tirik, o'yinchoq emas chinakam odam ekanligimdan g'ururlanardim.

Shu jihatdan o'zimni unga munosib deb bilardim. Va uning atrofida aylanishga, uni xohlagancha quchishga, hakkalab o'ynashga,

issiq kaftlarimda silab-siyपालashga haqqim bor deb hisoblardim.

Men shu haykal atrofida ulg'ayib borardim. Minglab, millionlab mum haykalchalar qo'shilganda ham birgina Pushkinga yeta olmasligini juda tez fahmladim.

Pushkin haykali royal kabi qop-qoraligini aytgan edim. Men shu qora rangga termula-termula shu rang yaqinimga aylandi. Shu rangga sodiq qoldim.

Moskva ko'chalarida biror bir habashga ko'zim tushsa, yuragim "jiz" etib ketardim. Unda mening Pushkinimdan nimadir borga o'xshardi. Uni sevishta burchliday tuyulardim. Pushkin haykali Rossiyaning daho shoiriga emas, insonni insondan ayirishga, kimnidir ko'tarib, kimnidir yerga urishga, dunyodagi barcha notenglik, ayirmakashliklarga qarshi o'rnatilgan isyon haykali bo'lib tuyulardi, menga.

Bu isyon Pushkindan ham avvalroq boshlangan edi asli. Habash o'g'li Osip Abramovich Gannibal bilan Mariya Alekseevna Pushkina nikohlangan kezda!

Yo'q! Undan ham oldin. Buyuk Pyotr habash o'g'li Ibrohimga mehrlil nazar bilan qaragan chog'da. Bu qarash Pushkin muqarrar tug'iladi, degan bashorat edi, aslida.

Pushkinning haykalining har chizig'ini kitobday o'qiyveraman, o'qiyveraman. Haykal tosh zanjirlar bilan o'ralgan. Ajib, zanjirlangan shoir.

- Uni himoya qilishayapti, dedi kimdir kinoya bilan.

Tosh canjir, tosh zanjir Tinglab tursam, kishanlar shildirashi eshtiladi Uzoq qarab tursam, Nikolayning qo'llariga ham o'xshaydi. Bu qo'llar Pushkinni quchoqlamagan, qo'yib ham yubormagan. Dunyodagi barcha chinakam erkni yomon ko'raligan shohlar kabi Pushkin esa zanjirlarga sig'mayotganga, ulardan ko'tarilib borayotganga o'xshardi.

B B B B Uzoq zamon xalq mehriqga bo'lajakman musharraf,

B B B B Chunki chorlovim bilan ezgu hislar tudirdim.

B B B B Shu yovuz zamonamda qo'rqmay erkni maqtadim,

B B B B Xor-zorlarga achinmoqqa chorladim.

Og'riqli, quvonchli dunyoni boyitgan bu haykalni Opekushin yaratganini bilasizmi? U ham erksevar shoir qiyofasida o'z botiniy isyonlarini suvratlantirdimikin? Tayyor bo'lgan haykaliga qarab: "Kechir, bu men" - deya shivirlamadimikin?

B B B B Osmon xudosiga yetdi nolasi,

B B B B Qalbiga ilohiy bir qudrat otdi.

B B B B Habash Ibrohimning o'ris bolasi

B B B B Buyuk Rusiyada tengni uyg'otdi.

Hozirgi gapimni eshitib, albatta:"Olib qoch-a" deysiz. Ammo bu gap shu qadar rostki!

Kunlarning birida biznikiga Pushkin haykali mehmonga keldi. Devorlari, shiftidan oq sovuq rang sochilib, junjiktirib turadigan xonada irg'ishlab o'ynab yurardim. Eshik qo'ng'irog'i jiringladi. Hech kimga o'xshamagan bir janob bemalol kirib keldi. Onam uni tavoze bilan qarshilab mehmonxonaga kuzatib keldi.

- Musya, hozir kelgan janobga qaradingmi?

- Albatta-da, oyi.

- Bu Pushkinni o'g'li. Tinchgina o'tir, bezorilik qilma. qaytib chiqayotganda, yaxshilab tanishib ol

Mehmonxona eshigidan ko'zimni uzmasdan kiprik qoqmay qarab o'tiribman. Yuragim "gurs-gurs" uradi. Nihoyat, chiqishdi.

Oyim, dadam, o'rtada o'sha janob. Hayajonlanganimdan nuqul oyimga qarayman. Oyim janobga ishora qildi. Faqat ko'ksidagi yulduz esimda qolibdi.

- Xo'sh, Musenka, Pushkinning o'g'lini ko'rdingmi?

- Ko'rdi, deyman xo'rsinib.

- Qanday odam ekan?

- Yulduzi bor odam

- Dunyo yulduzilarga to'lib ketgan, qizalog'im. Daraxtning silkitsang, yulduzli odamlar "tap-tap" yog'ilaveradi. Doim kerak bo'lmagan joyni ko'rasan.

- Musenka, deya onamning gapini ohista kesadi otam. Sen to'rt yoshingda Pushkinning o'g'lini ko'rding. Bu hazilakam gap emas.

Hali nevaralaringga afsonaga o'xshatib, gapirib yurasan.

Menday odam nevara ko'rguncha bu gapni birovg'a aytmay chidab turolarmidi?

Vanyaning yoniga uchdim.

Vanyang kim, deysizmi? Enagamizning nevarasi. U qalay ishlab chiqaradigan zavodda ishlaydi. Yakshanba kunlari biznikiga kelib turadi. U yoqimli ,sahiy inson. Har qanaqa quvonchni aytsang tushunadi. Menga o'zi yasagan kumush kaptarni sovg'a qilgan.

Vanya uyimizga kelib hech qachon yalpayib o'tirib olmasdi. Darrov buvisini yoniga kirardi, uylarni ham tozalab ketaverardi.

Uni yotsiramadik. Xonamizga bemalol kirar, birga chaqchaqlashib choy ichardik.

- Vanya, biznikiga haykal Pushkinning o'g'li keldi!

Nazarimda, uning og'zi losh ochilishi kerak edi. Ammo u jo'ngina ohangda:

- Oyimqiz, bir narsa dedingizmi? deb so'radi. Ovozimni ko'taribroq aytganimni takrorlayman.

- Senga bu gapni yetkazishim shart ekan. Otam aytdi, qo'shib qo'yaman xabarimni toshi og'irroq bo'lsin deb.

- Otangizdan nimadir kerak bo'lgan-da, bekorga kelarmidi

Vanyaning gapi ming'irlash bo'lib eshitildi.

- Hech narsa so'rab kelgani yo'q. Vanyani shart kesdi enaga. Shunchaki mehmon bo'lib keldi. U axir general-ku! Enaga qo'llarini yelkasiga qo'yib pogon qilib ko'rsatdi. Beli baquvvat odam. Tver xiyobonidagi Pushkinni bilasan-ku, o'shaning o'g'li.

- Ha-a Vanyaning ovozi ko'tarildi. Nimadir tushundi,shekilli.

- Soch-soqoli oqarib ketibdi, qaribdi, dedi enaga.

Men bu suhbatdan qarishning yaxshi emasligini his etdim. Otam, onam, enagamning aytganlari quloq yonidan o'tib ketadigan gaplar emasligiga, ularni xotiramda saqlab qolishim shart ekanligiga fahmim yetdi.

Men haykal Pushkinni o'g'li haqida shu qadar ko'p o'yladimki, bora-bora u menga shoirning o'zi bo'lib tuyula boshladi. Ya'ni, oppoq tongda sovuqdan junjikib turganimda uyimizga haykal Pushkin mehmon bo'lib keldi!

* * *

Kelinglar, yana o'sha sirli kitob javoni bor qizil xonaga qaytamiz. Men bilan birga chopib, charchab qolmadingizmi? O'zim bilan tuyg'ularim, so'zlarim, ovozim hech qachon ohista qadam tashlamaydi. Ba'zan ehtiroslardan o'zim ham toliqib ketaman. Eh, gap menda emas-ku, sirli javonda! Bu javonning bor-yo'q siri ta'qiqlangan Pushkin! Yana ham tushunarliroq aytсам "A.S.Pushkinning saylanma asarlari".

Men ta'qiqlangan sayin unga qattiqroq yopishaman. Butun vujudim KATTAKON ko'zga aylanadi. Butun vujudim bilan o'qiyman Uni. Harfdan harfga sakragan sayin olovlanayotgan tuyg'ularim bo'g'zimga tiqiladi, kuydiradi. Jismi-jonim zarrama-zarra Pushkinga o'ta boshlaydi, barmoqlarim, qorachig'larim, ovozim ana Musya, Marina yo'q. Pushkin, faqat Pushkin bor. Unda topgan dunyoi davlatimning birinchisi lo'lilar. Qanday chiroyli jaranglaydi, lo'licha ismlar Aleko, Zemfira, Qariya... Men shoirning "Lo'lilar" dunyosiga kirgunimga qadar qariya desa ko'z oldimga Tarusa xilxonasida xizmat qiladigan Osip kelardi. Akasini bodring bilan urib o'ldirganidan keyin, qo'li qurib, yog'ochga o'xshab qolgan ekan.

Bobojonim Meynni zinhor-bazinhor qariyalar qatoriga qo'shgim kelmasdi. Chunki:

B B B B Qariya ko'cha-kuyda tentirab yuradi.

B B B B Uni hech kim sevmaydi.

B B B B U hammaga begona.

Ha-ya, men lo'lilar haqida gapirayotgandim. Ularni sira ko'rmaganidim. Faqat enagamdan eshitganim bor. Uning aytishicha, tilloga o'lguday bir lo'liga oltin suvi yuritilgan zirakni tozasi, deb sotishibdi. Lo'liljon haqiqatni bilgach, zirakni qulog'idan shunaqa g'azab bilan tortibdiki, bir parcha go'shtiyam qo'shilib, yuliniydi.

Ana tomosha-yu mana tomosha Lo'li o'zining tilida rosa chinqirib, zirakniyam, quloqning yirtig'iniyam tepib-tepib xumordan chiqibdi.

Lo'lilar o'z yo'liga. Men asardan muhabbat degan bu dunyodagi eng chiroyli so'zni topdim.

Ko'ksingda o't yonsa, yuragingning tub-tubida dengiz sifat nimadir shovullasa

Sevgi ekan shu!

Men go'dakligimdan, ehtimol, tug'ilmasimdan oldinroq shunday hissiyotlar aro yashay boshlaganman. Lekin uning ismi sevgi ekanini "Lo'lilar"dan o'rgandim

Oh, Aleko Zemfirani sevdi. Dunyoda yana birov lo'lilarday sevolarmikin? Men esa Aleko, Zemfira, Mariul, ular yashagan makon, ular yurgan yo'llar, bosgan bari-barini yaxshi ko'rib qoldim.

Yo'q, ayto'lmadim.

To'g'rimgacha, ko'zimgacha, sochimning tolalarigacha yaxshi ko'rdim, o'lguday yaxshi ko'rdim. Men ana shu yaxshi ko'rish ichida o'zimni tanidim. O'shanda bilganlarim, o'ylaganlarimni yana kimgadir aytib bergim keladigan bo'ldi. Tinglovchi ham tezda topila qoldi - Asyaning enagasi va uning chevar o'rtog'i. Onam tez-tez teatrga tushib turardi. Asya shiringina bo'lib uyquga ketganda, uchovimiz choyxo'rlikka o'tirardik. Enaganing o'rtog'iyam kunda-shundalardan edi-da.

Bizning Musenkaning bilmagani yo'q. Enaga meni til uchida "Musya, Musenka"lardi. Ammo paytini topib ota-onamga yetkazadigan til topsa, maqtab qo'yardi: Bo'ri bilan qo'zichoqni gapirib, manovi moshinachi xolangni og'zini bir ochib qo'y. Yo nog'orachidan olasanmi?

Yo, tangrim! Besh yoshimdan o'z yozug'imga kimlargadir "ma'naviy ozuqa" baxsh etish yozilibdi. Men bu qismatdan hech qachon g'ururlanmagan emasman. Hozir to'g'risi, aldab nima qilaman, achinaman!

Men suhbatdoshlarimga bir zum tikilib turaman. Avval qizg'onaman. Yuragimdagi "Lo'lilar"ni tilimga chiqarsam, ular birovning mulkiga aylanib qoladiganday rashkim keladi. So'ng "Nima bo'lsa, bo'ldi" deyman ichim yonib.

- Lo'lilar haqida gapirgim kelyapti.

- Lo'-li-lar? deya cho'zib so'raydi enaga. Ular haqidayam ertak to'qishibdimi? Voy, savil-ey, o'sha isqirtlarga ertak tushib qolibdi-da.

- Ular taborda yashaydilar! deyman alam aralash g'urur bilan.

- Taborlari bormi? Saroyi bor, deganday gapirasiz-a, oyimqiz.

Yoshroqlari-ku, yo'ldan o'tkazishmaydi. "Taxtingdan ochaymi, baxtingdanmi? Dardi bizning baxtu taxtimiz emas, aqcha! Yoshi o'tganlarini-ku burniga xoda yetmaydi. Boshlang. Qulo-lari, qo'llari yaltiraydi. Bari o'g'rilik, boylardan o'marishgan.

- Bu bular boshqacha lo'lilar! deyman. Lablarim titrab, ko'zlarim charaqlab ketgani o'zimga seziladi.

- O'z erkiga qo'ysang-chi! Gapirsin! deydi enaganing o'rtog'i Balki, oyimqizning lo'lilari chindan ham boshqachadir.

Mening lo'lilarim! Men bu hadya uchun mana shu lab-dahanini bo'yagan xotinni boshdan - oyog'igacha o'pishga tayyor edim.

- Zo'r yigit bor ekan, yo'q oldin bir chol va uning bir qizi bor, so'zlarim o'zimmikiga o'xshamasdi. Tuflab tashlagim keldi shu bechoragina "bor edi, bor edi"larni! Yo'q, she'r aytib beraman!

-

- Qanday yaxshi-ya, qanday yaxshi! yuzlari nurlanib ketdi moshinachi ayolning.

- A-ayiq, dedi enaga beparvogina. Lo'lilarning ayiq o'ynatishi rost. "Qani, Misha, o'ynab ber", deydi. Maymog'i likonlab aylanadi. Fu, shuyam o'yin bo'pti-yu

- E, gapning beliga tepmay tur. Keyin nima bo'ldi, Musenka? shoshiradi moshinachi.

- Qizi keldi "Otajon, men sevgan shunqorning oti Aleko dedi!"

- Ni-ma-a?

- Aleko!

Shuyam ism bo'pti-yu, lo'liga it ham ot, bit ham! Enagani qulochkashlab tushirgim keldi. Ming, ming afsus, bizda muomalaning boshqa usuli qat'iyman etilgan.

- Aleko! - tishlarim g'ijirlab ketadi.

- Aleka kaleka.

- Aleka emas, Aleko!

- Men nima dedim?

- Sen Aleka deding.

- O'rtog'im o'zi shunaqa demoqchi edi. Tili aylanmasdi-da. O'rganmagan. - moshinachi bizni murosaga keltirishga urinardi. Jahling chiqmasin, Musya, ayta qol, keyin nima bo'ldi?

- Go'zal Zemfira (lo'li qizning ismini iloji boricha aniq, chiroyli aytishga harakat qilaman) otasiga: "Endi Aleko biz bilan birga yashaydi. Tangri uni menga sahroda duch etdi. Cholga uning sahroda topilgani juda yoqib ketibdi.

Men hikoyamga qo'shiqni ulab yuboraman. Enaga ham menga qo'shilib kuylay boshlaydi.

Ular doim yo'lda edilar. O'rmonlar, daryo sohillarida to'xtashardi. Bolalari yo'llarda tug'ildi. Shu qadar baxtli edilarki! Mitti lo'licholqlarni (cha degim kelmadi, ular rostdan qo'zichoqqa o'xshash lo'licholq edilar-da!) savatlarga solib yurishardi.

- Bo'пти, bo'пти, derdi enaga betoqatlik bilan. - Chol haqida gapir!

- Cholning xotini yosh, dilbar Mariul edi. Bora-bora choldan uning ko'ngli qoldi. Lochinday boshqa bir lo'li yigitni sevdi-da, shartta u bilan ketib qoldi.

Lo'lilar doim sevib, sevib yashashni xohlashadi. Bitta odamni har doim sevish ularga zerikarli tuyuladi. Shuning uchun Zemfira ham boshqa yangi seviklisi bilan qabristonga ketdi. Bu paytda Aleko xurрак otib uxlab yotardi. (Ichimda "battar bo'lsin" deb qo'ydim). Uyg'onib qarasa, Zemfirasi yo'q. Quyunday uchdi. Xotini bilan yosh lo'lini qabristondan topdi. Lo'liga pichoq tortib yuboradi. Zemfiraning yuragi yorilib ketadi. Uyamuyamo'lib qoladi.

- Odamxo'r, yaramas! Pichoq bilan so'yibdi, degin. Bu lo'lilarni bari bir go'r. Cholga nima bo'пти, cholga?

- Buncha chol, chol, deysiz? Zemfira o'ldi! deyman yig'laguday bo'lib. Cholga baloyam urgani yo'q. Ketdi. Aleko esa bit-ta o'zi qoldi.

- Ajab bo'пти. Qotilning jazosi shu yakkamoxov bo'lib qolaversin. Qishlog'imizdanam bittasi chiqqan. Xotinini birov bilan tutib olibdi. Ikkoviniyam o'sha zahotiyoq narigi dunyoga ravona etibdi. Vasya, Vasiliy deyishardi battolni. E, bu dunyoda qanaqa vahshiyliklar bo'lmaydi, deysan?

Sevgi azobi yomon enaga allanechuk boshqacha bo'lib qoladi. Ehtimol, uyam kimnidir eslagandir, axir, yosh bo'lgan-ku

* * *

Men Pushkinni sevgi bois qattiq sevdim. U menga odam bolasini goh telba, goh odil, goh daho, goh gado qiladigan; goh gulxanga o'xshab sachrab-sachrab yondiradigan bir hissiyotning ismini topib berdi. Yo'q, o'zini ko'rsatdi. Bir kuni uy xodimimiz birovning derazasidan necha kunlab kirolmay turgan mushukchani uyga olib keldi. Mushukcha bir burchakka qunishib, har sharpaga yotsirab qarab, uch kun yashadi. Keyin to'satdan g'oyib bo'lib qoldi. Shu ketganicha qaytmadi.

Bu muhabbat.

Yoki Avgusta Ivanovnaning "Men Rigamga yetib olsam bas, sira-sira qaytmayman", deyishi ham muhabbat.

Nog'orachi o'z ixtiyori bilan urushga ketib, qaytmadi.

Buyam muhabbat.

Men ularning hammasini ko'ksida o'zim biladigan o'zni shundoqqina ko'rib turibman. Bo'ri bilan qo'zichoq esa muhabbatga kirmaydi. Oyijonim takror va takror ulardan gap ochib, ikkovini muhabbatga yaqinlashtirmoqchi bo'ladi:

"Oppoqqina, mayingina qo'zichoq" deydi achinish ohangi bilan.

Rostini aysam, men aslida bo'rilarini yaxshi ko'rardim. Ammo Krilovning mashhur bo'risini yaxshi ko'rgim kelmasdi. U qo'zichoqni yeb qo'ydi! Og'izlaridan qon oqizib go'sht yegan bo'ri bilan mening muhabbatim mutlaqo kelisha olmasdi.

Unga yalinib yotgan qo'zichoqni ham sevishni istamasdim. Undan ko'ra, qirg'oqdan bitta tosh olib, tumshug'iga solsa, sevish mumkin

* * *

Mening sevikli bo'rim Isyonkor yo'l boshchi edi. Agar kim qullikka nafrat bilan qarasa, erkni sevsa, men qaysi isyonkor haqida gapirayotganimni so'zsiz tushunadi.

Bu Pugachyov.

Men Pushkin, Pugachyov va o'zim haqimda keyinroq gapirib bermoqchi edim. Axir, pugachyovli olam bu podporuchik Grinyovli olamdan ham boshqacharoq. U yertuban yotgan haqorat, ko'rlik dunyosi aro hamisha tik turguvchi kuchli bir balandlik. Uni egilib emas, hamisha tiklanib ko'rasan.

Men isyonkor yo'l boshchimni hamma sevimli jonli, jonsiz narsa va odamlardan ko'ra ko'p, juda ko'p yaxshi ko'rardim.

Men sizga sirli javonimda Pushkin yashaydi, degandim. Bu gapimga ishonning. Ammo isyonkor yo'l boshchi yashaydi, desam ko'proq ishonning.

Ota-onamdan o'g'rincha kitob o'qishlarim sabab bo'lsa kerak, men hovlidagi o'zimga tengdosh bolalardan mutlaqo boshqacha so'zlardim.

Gapimni maqtanchoqlikka yo'yamasligingiz uchun onam bilan bo'lgan suhbatlarimning birini aytib beray:

- Musya, qaysi o'yinchog'ingni yaxshi ko'rasan? Nemis qo'g'irchog'ing chiroylimi yo frantsuzimi?

- Frantsuzi durustroq.

- Nega?

- Chunki uning ko'zlari tirik.

- Nima-a?

- Uning ko'ziga qarab qo'rqsayam bo'ladi, vahimasi bor!

Onam meni mutlaqo tushunmadi. To'g'rironi, avval qo'rqib ketdi. Keyin qo'l siltab, qo'ya qoldi. Men oyimdan hafa bo'lmadim.

Chunki mening aytayotganlarim so'zlar emas, hislar edi. Meni faqat Pushkin tushunadi. Balki boshqa shoirlar ham anglar. Bari-bir Pushkin juda yaxshi tushunadi. Chunki u Birinchi shoirim.

* * *

Musiqaning tinglab yuragim ag'dar-to'ntar bo'lganda olti yashar edim. Merzlyakov tor ko'chasida Zograf Plasining musiqaning maktabi bor edi. Rojdestvo kechalarining birida onam o'sha maktabga yetakladi. Avval "Suv parisi"dan ko'rinish tomosha qildik.

B B B B Endi qushday uchib boramiz,

B B B B U Tatna bilan uchrashgan boqqa.

Men bu satrlarni eshitganimdan so'ng rostdan ham sahnadagi voqealar izidan qush bo'lib uchdim.

O'rindiq. Tatyana o'tiribdi. Onegin keldi. U tik turgan kuyi gapira boshlaydi. Qiz ohistagina turadi. Onegin so'zlaydi,

so'zlayveradi. Tatyana tinglayveradi. E, xudoyim-ey, kulrang mushuk, Avgusta Ivanovna, qo'g'irchoqlar bari-bir yolg'on muhabbat ekan-da.

Muhabbat - Onegini jim tinglayotgan Tatyana ekan.

- Tomosha zo'r bo'ldimi? Senga "Suv parisi" yoqandir-a? Uning g'aroyib tegirmonlari, knyazlar, bahaybat dev, Vagneda?

- Tatyana bilan Onegin yoqdi, deyman oyimning mayin tovushi mutlaqo mos kelmaydigan keskin ohangda.

Oyim yuzimga ajablanib qaraydi:

- Biron narsaga aqling yetdimi? Nimani tushunding?

- Tatyana bilan Onegini tushundim.

- Tatyana bilan Onegini.

Oyim qizisha boshlaydi.

- Xo'sh, anglaganingni gapirib ko'r-chi.

Bo'g'zinga nimadir tiqladi, jimman.

- Ana, aytmadimmi? Olti yashar bolasan-a, nima yoqib, nima yoqmaganini bilarmiding?

- Bilaman. Tatyana bilan Onegin

- Eshshakday qaysarsan! javob qiladi oyim. Endi ming marotaba so'rayver, plastinka bir xil aylanadi: Tatyana, Onegin! Men tanigan, bilgan bolalarning hammasiga "Suv parisi" yoqqan. Bu o'jarni nima qilishga hayronman! Onam bilan ikkovimizning suhbatimizni bexosdan eshitib qolgan maktab direktori Aleksandr Leontovich Zograf qo'shiladi:

- Musenka, nega aynan ular ko'nglingga o'tirishdi? so'raydi direktor.

Chunki ular muhabbat, rostakam muhabbat, issiq muhabbat, degim keladi. Ammo ovozimni chiqarmayman.

- Sababini men bilaman, deydi Valeriy Bryusovning singlisi Nadejda Yakovlevna. Mahmadanagina bu qiz yuqori sinf o'quvchisi edi. - Musya yettinchi osmonda yuribdi.

Yettinchi osmon? Muhabbat yashaydigan joymi u? Direktor menga bir nimalar deb olmami, mandarinmi uzatadi. Hammasining shakli-shamoyili, ovozlari uzoqlashib ketadi. Men tobora yengillashib boraman.

- Mandarinlar uchun rahmat ham demading-a, bu qanday sharmandagarchilik! Olti yoshida muhabbat deb o'tirsa-ya. Onegini yaxshi ko'raman desa-ya

Oyim sal adashdi. Men ularni ikkovini birga yaxshi ko'rib qolgandim. Ilk tasavvurim sababli, baxtiyor sevishganlarni emas, sevilib, ayrilganlarni sevardim. Ayriqliq sevgidan huzurlanardim. Bu dunyodagi eng kuchli ishqqa o'xshardi. O'sha damlardan o'zimni baxtiyor bo'lmaslikka ko'ndirdim.

Tatyana Onegin uni sevmasligini, sevolmasligini bilardi. Shuning uchun aynan uni tanladi. Javobsiz ishq kuchli odamga beqiyos ulkan kuch baxsh etadi. Men buni olti yoshimdayoq bilardim, faqat so'zini topib ayta olmasdim.

Men jamalak soch bolalikdan o'la-o'lguncha Tatlanani o'yladim. Manna, u shamning ko'kish yorug'i marmarday yelkalari, ko'ksi uzra sochlarini yoyib turibdi. U ko'zlarimda shunday turadi. O'pgim keladi. Ko'zlarimni quchgim keladi. U mardlik suvrati. G'urur suvrati. Bir umr o'qib, to'ymaydigan kitobim mening Tatlanam!

* * *

Tatyana "Yevgeniy Onegin"dan chiqib ko'nglida sevgisi bor odamlarning sevimli qahramoniga aylandi. Go'zal ma'shuqa!

Tatlananing honishlarida zarracha bo'lsa-da, rad etilganli alami yo'q. U mutlaqo qasos alangasida yonmaydi. Aksincha, qalbidagi benihoya buyuk sevgini Tangridan in'om deb biladi. Shuning uchun Onegin hayratda. Ammo ularning uchrashuv sahnasidagi bor kayfiyatni Tatyana boshqaradi. U xohlasa, Onegini bir pul qilishi mumkin. Ammo u buni istamaydi! Bir o'zi qoladi, sukunat bilan. "Men sizni sevaman!" deya aytolmagan lablari, ko'zlari bilan Tatyana Oneginiga hamisha sevimli.

Qizlar, qizlarjonim! Keling, sevimli qahramonlardan bir nafasgina uzilib, meni tinglang! Ilk sevgini seving, unga ishoning.

Sevgidan ham ko'proq g'ururingizni yaxshi ko'ring. Zinhor-bazinhor o'zingizni relslar ustiga tashlamang! Jamiyat ham, muhabbat ham ezg'inlarni battar ezadi. Boshingizni tik tuting. Odamsiz, axir! "Men"ni deng!

Menga qadar Tanyusha onamning qadrdoni bo'lgan. Onamning ham oshiqdari qator-qator edi. Hammasini rad etib, dadamni tanladi. Yo'qsa, dadam onamning ikki yoshini yashagan, buning ustiga ikki bolalik tul erkak edi. Onam uni qanday bo'lsa, shundayligicha sevdidi, shundayligicha qabul qildi. Ba'zi savollariga o'zi, ko'zi, yuzidan topolmagan javobni dadamning yozganlaridan topdi. Onam jim sevish, jim sadoqat ko'rsatishni Tatlanadan o'rganganday, nazarimda. Shuning uchunmi, mening dunyoga kelishimga ham Pushkin va uning Tatlanasi sabab bo'lgan, deb o'ylayman. Axir, Pushkin yuragi qonab, o'sha dilbar she'riy romanni yozmaganda, onam Tanyushaga taqlid qilib, suymaganida men mahmadona Musya, Musenka qaydan bunyod bo'lardim, deysiz

* * *

Mening Pushkinim boshqacha.

Ularning ya'ni qolgan barcha odamlarning Pushkini boshqacha. Ular "Yevgeniy Onegin"dagi zaharxanda kinoyani payqashgan. Davrga kinoya, davr qahramon-lariga kinoya Men esa "Yevgeniy Onegin"ni o'qiganimda hali yetti yoshga to'lmagandim. Hali muhabbatli yurakka tosh otinishini bilmasdim. Hali haqoratlanib, xo'rlanib ko'rmagandim. Hali quvg'in degan so'zning og'irligi, og'rig'ini his etmagandim.

Faqat Tarusadagi chorbog'imizdag bog'ni, bizning yotoqxonamizdagiday lip-lip yonayotgan shamni va o'zinning bola qalbimdagiday toza sevgini bilardim.

O'qish man etilgan, barcha qo'rzoqlar zir titrab qo'rqadigan, ko'rganda botirlarning ham yuragi "shuv" etib ketadigan moviy muqovali Pushkinimni qalbimning tub-tubiga bekitib qo'ydim. Sog'insam, qalbimga mo'ralayman. Eh, qanday mazza! Qanchalar ulkan, qanchalar ulug'! Xudoyim balki uni rostdan ham qo'rzoqlarga qarshi isyon tarzida yaratgandir.

Xullas, menga boshqa Pushkini ro'para qilishdi. Baribir emasmi? Bunisining ham muqovasi - moviy rangda. Faqat qog'ozi yupqaroq. Shahar bilim yurtlari uchun chop etilgan darslik kitobi. Kitobdagi barcha yozuvlar, suvratlar ichida bittasi - jonu dilim. U ham bo'lsa - habash bola. Men o'sha suratni hozir ham Pushkinning eng yaxshi suvrati deb bilaman. Soatlab termulsam ham mutlaqo zerikmayman. Aksincha, o'sha suvrat chizgilaridan o'zim uchun eng aziz dunyoga kirib ketaman.

Ayniqsa, portretidagi qon belgisini beruvchi chizgilarga boshqacha bir hayrat bilan qarayman. Bu o'z sukutiga o'zi o'ralib yotgan dunyoda erk ovozi bo'lib yaralayotgan shoir qoni emasmikin?

Kitobchaniy o'zi esa menga yoqimli hisobi. Nomlanish ham jo'ngina "Shahar bilim yurti o'quvchilari uchun". Shuyam nom bo'ldi-yu Ular kim edi o'zi? Sovuqdan ko'karib, qalt-qalt titrab, ochin-to'qin yurgan bolalar Pushkinning yuzlari ham shunday chizilgan edi. Faqat Pushkin och bo'lsa nonga emas, haqiqat, adolatga och yashagandir Bu suvratni ko'rsang, achinmaysan. Ich-ichingdan kimgadir, nimagadir nafrating toshib kelaveradi. Ayniqsa, shoirning qo'llari Qattiq tugilgan ikki musht.

B B B Bu alamni bilmas osmon qushlari,

B B B Bu o'kinch, bu xasrat yotdir ularga

O'sha qushlar rostdan bormikin, osmon osmonmikin o'zi? Balki bu dunyo emas, bechoragina kapalakdir. Bu satrlar Pushkinga o'xshaydi. Ammo "Qish. Dehqon nashidasi" degan odam bolasining yuragini "jiz" ettirmaydigan satrlarni noshirlar qaysi chuqurdan kovlab topishdi ekan?

Tavba, nega chuqur desa ko'z oldimga Pushkin haykali keladi Zanjiri yetmaganday zanjirlariga mix ham qoqilgan. Uzoq qarab tursang mix o'yilgan ko'zlarga ham o'xshaydi.

Biroz chalg'idim. Men Pushkinning shahar bilim yurti bolalari uchun chop etilgan kitobi haqida gapirayotgandim. Kitobni men tugul o'sha yupun bolalar ham sevolmaydi. Chunki ular Pushkini qattiq tugilgan mushtlarini ochishga qurbilari yetmasdi.

Ochganda ham uning kaftidagi yozuvni o'qiy oladigan ko'zning o'zi yo'q edi.

Men o'zimning kitoblarimni bolalarday, bolalarni esa kitoblarimday yaxshi ko'rardim.

Ukam Andryushani o'qishga tobi yo'qroq edi. O'qish mayli-ya, uni qisqartirib, ko'chirib yozish, allaqanday savollarga javob topish Ayniqsa, gal she'rga kelganda, Andryusha bir yoqda qolib, onamning ham ko'zlariga savol qalqardi:

B B B Oy va yulduz porlagan oqshom,

B B B Tulporni shamolga bog'lagan kimdir

Onam:

- Nima degani bu? deya so'raydi.

Andryusha esa hafsalasijgina yelkasini qisib qo'ya qoladi.

B B B Ikki qo'llab qalpog'iga yopishar, nega?

B B B Chunki unda xufya, yovuz bitta xabar bor.

B B B Xufya xatning sir-asrorin Kochubey bilar,

B B B Shoh Pyotrni etmoq istar bundan xabardor.

Xufya xabar nimaligini o'sha paytlarda aniq bilmasdim. Faqat shu so'zni eshitganda sovuqotib, junjikardim. Oyli, yulduzli sovuq tun. Tulpor shamolday uchadi. Kazak ikki qo'llab qalpog'ini ushlab-ushlab qo'yadi. Hadik, xavotir oladi. Chunki unda Getman Shoh Pyotrga yovuz Kochubeydan xufya fitna xati bor.

Bu mening tarix bilan ilk uchrashuvim edi.

Yovuz Shoh Har doim shu atamani to'laligicha tushungim keladi. Tovushlari, harflarning avrv-astarini ag'darishni xohlayman. Kim o'zi u?

- Kim u? deya so'raydi onam ham Andryushadan.

Andryushaga esa bu savol mutlaqo yoqmaydi.

- Men qaydan bilay? deydi u odatdagiday yelkasini qisib.

- Xo'sh, Musya, sen nima deysan? onam ranjiganini bildirmaslik uchun meni savolga tutadi.

- Pahlavon, deymen shartta.

- Nega? endi oyimni to'xtatib bo'lmaydi.

- Chunki unga hamma bo'ysunadi.

Shu kabi savol-javoblarda shoh haqida o'zim gapirib, o'zim bir qadar anglagandek bo'laman. Ko'pincha, uning oti Pyotr bo'lib tuyuladi. Ammo u hamisha tasavvurimda shu ism bilan qotib turavermaydi. Asta-asta yovuz Getman va Kechubey bilan birlashib ketadi. Xudojonim-ey, nahot Pyotrni ulardan ajratib olib bo'lmasa? Bora-bora ularni birlashtirib turguvchi mening xayolim emas, taxt va toj ekaniga ishona boshladim. Yana Pushkinga qaytaman. Yo'q, aslida undan uzoqlab ketmadim. Fikrimdagi barcha savollarga Pushkin orqali o'taman-ku, axir.

Darvoqe, savol Shoirmi o'qiganlarimda uning savollariga qarab hayron qolardim. Nahot shunday kap-katta odam shu narsalarni bilmay mendan so'rasa, deb ajablangani - ajablangan edi. Endi bilsam, Pushkin o'zi uchun emas, men uchun so'roq qo'yar ekan. Meni shu savollar aro ulg'aytirmoqchi, ko'zimga dunyoni aniqroq ko'rsatmoqchi ekan. Men so'roqli sayrlarni oralab, daryoda oqqanday oqaman.

To'grisini aytsam, she'rlardagi so'roq alomatini yomon ko'raman. Nimaga, nechun degan savollar she'riyat ruhini o'ldiradi. She'r bilan mening ruhiyatim orasini uzib-uzib tashlaydi. Axir, she'r degani topishmoq yo masal emas-ku. Mana "Cho'kayotganlar" she'ri. Unda hamma narsa tabiiy. Biz bolalar daryo bo'yida chopqillab o'ynab yuribmiz. Goh nimanidir talashib qolsak, chuvillashib, otalarimizni chaqiramiz. Daryoga cho'kkanlardan esa qo'rqib o'tirmaymiz. Odamlar bizni nuqul murdalar, ularning ruhi bilan qo'rqitmoqchi bo'lishadi. Qo'rqitib bo'pti! Tarusada yashayotganimizda ham cho'kkanlar, cho'kayotganlar haqida bizga ko'p gapirishardi. Dala hovlimizga juda yaqin joydan shovullab Oka daryosi oqardi.

Bolalar cho'kishardi, mast-alastlar

Ba'zan hushyor odamlarning ham cho'kkanini. (ehtimol, cho'ktirilganliginidir) pichirlashib qo'yishardi. Hatto aziz bobojonimiz

Aleksandr Danilovichni ham cho'kib o'lganga chiqarishgan.

Men esa ularga rak yopishgan degan fikrda edim:

B B B Ko'pchib yotgan og'ir badanga

B B B Chip yopishgan qop-qora raklar.

Umuman, cho'ktirilganlarda iz qolmas ekan. Balki, odamlar shuning uchun ham har qanaqa ajalni suvga ag'darib qo'ya qolishar.

B B B Sahardanoq tundlashar havo,

B B B Yuraklarda bo'ronli g'amlar.

B B B Zich yopilgan darchani go'yo

B B B Mushtlay boshlar cho'kkan odamlar.

Bunday satrlarimni o'qiganimda chindan ham ko'z oldimda arvoqlar g'imirlay boshlaydi. Yana buning ustiga ruhlar haqida

"Burdalak" degan vahimali she'r bor. O'shani o'qiy boshlasam, Vanya qo'rquvdan titray boshlaydi. Rangi oqarib, peshonasidan ter

chiqadi.

- Og'zi qon Burdalak g'ajiydi suyak
- Burdalak nima o'zi?

Vanya-ey, shuyam savol bo'пти-yu. Axir suyakni qush g'ajimaydi-ku. Burdalak it-da. Vanya endi qo'rqqani uchun it bechorani aybdor qiladi. Ammo odam yuragidagi qo'rquv uchun, akillayotgan itlardan ham ko'proq yurak aybdor. Itlar ham yaproqday titrab turgan yurak,, jovdiragan ko'zga qarab vovullaydi-da. Xullas, qo'rquv haqida gapirishayapmiz.

"Jinlar" ham qo'rqinchli she'r. Lekin sevaman-da shu she'rni. She'rdagi Oy o'zi ko'rinmaydi, lekin hammani ko'rib turadi. U ataylab hammani ko'rish uchun ko'rinmas bo'lib olgan. Tun sukunatini tilib, tulporlar kishnaydi. Chavandoz bo'ronning bir parchasi. Eha, bunday holatda oddiygina odam bo'lib o'tirib bo'larkanmanmi? Qo'lingni shunday balandga ko'tarsang-da, qushga aylansang kengliklar kengayaversa, uchaversang, uchaversang Tovushlaring osmonlarda raqs etsa, tinmasa. Sen o'sha qushligingda ham o'zingni yo'qotmasang, o'zingni sezmasang. Shundoqqina Oyning do'stiday, u bilan qo'shiq aytib, yonma-yon ketayotganday bo'lsang

Shunda meni Pushkin, albatta, ko'radi. Axir, Oy uniki - da. Oyga ma'yus termulganda menga-da ko'zi tushadi.

Bu tasavvurim emasdi. Men chindan ham Pushkinning she'rlarida yashar edim. Satrlar ichiga kirib ketardim. Uzoq-uzoq qolardim. Barcha tuyg'ularim shoir asarlari ichida tug'ilganga o'xshardi.

Burdalakka achinardim. Uni ochlikdan, zulmdan himoya qilgim kelardi. O'z-o'zicha suyagini g'ajib yurgan bu bechoraning kimga zarari tegadi deb o'ylardim.

Jinlarga kelganda savol qopim ochilardi. Jinlar ham o'larmikin, yo'q, oldin ular turmush qurisharmikin? O'lishsa, ularni ham ko'misharmikin? Har na qilganiga ishonsa bo'ladi, ammo bu battollarning shukrona qilishlariga mutlaqo ishonmasdim. Jinu jodugarlarni Xudoning o'zi urib qo'ygan. Bizniki ortiqcha. Ular shu holida ham menga goh bulutlar bo'lib ko'rinardi. Kulrang, ajabtovur bulutlar. Osmon dengizida cho'kib, qalqaveradi, cho'kib qalqaveradi.

"To'lqinli tumanda suza boshlar oy". Suzar epcil mushukday, qaroqchi xotinday, o'ziga ishongan tulkiday "G'amgin dalalarga ma'yus nur tarar". Eh, naqadar ulkan hasratlar hammasi!

B B B B Qatl etasiz, ey moviy ko'zlar,

B B B B Nega axir begunoh jonni?

B B B B Yuraksiz, zolimsiz nechun,

B B B B Qadr etmaysiz hatto insonni?

Ehtimol, "Moviy ko'zlar, moviy ko'zlar"niyam, boshqasiniyam kimlardir Pushkin deb bilmas. Men yo'q joyda ham ko'radiganim ko'rib hayajonlanadigan oyimni tanimas Ammo men uchun bularning hamma-hammasi o'zimday, ko'zimday, yuragimday tanish Ular mening muhabbatimdan ham ulkan, bepoyon. Ular Rossiya! Aziz Rossiyam! Rossiya Pushkinda butunlashadi, Pushkinda parchalanadi.

"Suronli kunlarim do'stisan, munis kabutarginam"

Har bir satr aniq. U nima yoki kim Ammo Asyaning enagasini mutlaqo kabutarginam, deb bo'lmaydi. Mening enagamni shunday atasalar boshqa gap, chippa yopishadi. Asyaning enagasini o'zini aytmay qo'ya qolay, familiyasi ham bir balo u emas, bu emas Muxina.

Kabutarginam esa shu qadar yoqimli Bu so'zni ilk bor otamdan eshitganman. Otam onamni shunday erkalatardi.

- Kabutarginam, bu nima degani, tushuntirib berasanmi?

- Ularni qo'yaver, kabutarginam. O'zimizni bil!

Otam onamga hadeb shunday deyaverganim uchun "kabutar" so'zi bizga kunday ravshan edi. Faqat "do'st" degan so'z "kabutar"dan sal uzoqroq edi. Chunki Asya ikkovimizning deyarli do'stimiz yo'q edi. To'g'rirog'i, ikkovimiz bir-birovimizga do'stmiz, do'stroq desa ham bo'ladi.

Kabutar ona. Pushkin enagasini juda yaxshi ko'rgani uchun "munis kabutar" deganiga chippa-chin ishonsa bo'ladi.

Men kimni ko'proq yaxshi ko'raman? Enagamnimi yo Pushkinnimi? Albatta Pushkinni! U o'zining enagasini qanchalik yuragi uzilib kutgan bo'lsa, men ham o'z she'rlarimga shunday intizor bo'laman.

Ana, o'sha enaga Deraza tagida o'tiribdi. Deraza tagida faqat kimgadir ilhaq odam o'tiradi. Enaganing qo'llari tez-tez harakat qiladi, nimalarnidir to'qiydi. Ko'zlari esa yo'lda. Pushkinning o'zi qaerda ekan? Ko'rinmaydi. Kelmaydi. "Qayinzor o'rmonlar bag'rida meni kutib yashaysan hanuz". Qayinzor o'rmonni ham bilaman. Tarusamizda ham bor. Shundaygina Okaga yaqin.

Qayinzor orol. Doim shovullab yotadi. Joningni yayratadigan hidlar olib keladi shamol. Chiroyli ranglar sachraydi oroldan. Onam daraxt po'stloqlaridan turli-tuman narsalar yasashga usta edilar. Yelkanli qayiqchalarni qotirib qo'yardi. Men esa qayinchalarni bag'rimga, yuzlarimga, manglayimga bosardim. Qayiqchalardan, qayinlardan Pushkinning enagasini hidi kelardi. Men go'zal qayinchalarni emas, muloyim, yuzlari nurli enagani quchganday bo'lardim. "O'ltirasan shamga termulib, derazaning tagida mudom". Enaganing derazasi doim yorug' va top-toza bo'lgan. U Pushkinni to'yib ko'rish uchun o'z derazalarini hamisha orasta tutgan, qorong'ulikni yaqin keltirmagan.

She'rlar jaranglayveradi. Enaganing ko'zlari teshiladi. Ammo shoir yo'q! Nima qilarding Uni? Nahot endi rostdan ham kelmasa?!

"Vaqtga qo'shilib yonayotgan" enagajon! Qanchalar tushunaman seni! Ana, boshing uzra devor soati. Tinmay chiqillaydi. Sen esa bot-bot soatga qarab qo'yasan. Go'yo kelish vaqtini aytib yetganday. Go'yo va'da berganday. Soatdagi kakkucha ham boshini chiqarib "ku-ku"laydi.

Keladi, deganimi?

Pushkinni o'qib o'ylayman, o'ylab o'qiyman. Enaga ham asta-sekin kabutardan chiqib qo'llar, ko'zlar sog'inchiga aylanadi. Soat millarini eslatadigan to'qish piltalari Bari-barida intiqlik: serajin, yumshoq qo'llar, lang ochilgan darvoza, mung'aygan deraza Men har biri oldida uzoq-uzoq to'xtab qolaman.

Bolalikda yodingga nima o'rnanishgan bo'lsa, umring oxirigacha senga xiyonat qilmaydi. Bolaligi yo'q odamning hech narsasi yo'q Pushkinning qisqa umri davomida ko'p ayollarga mehri tushgan. Ammo u birortasini enagasiday jon-tani bilan yaxshi ko'rmagan. Boshqalarni ehtimol sevmagan lahzalari bo'lgandir, ammo enagasini hatto uyqusi, tushlarida ham yaxshi ko'rib yashagan.

"Enaga" Pushkinning hech qarimaydigan, hamisha yosh muhabbati

* * *

To'g'risini aytib qo'ya qolay: adabiyot darsliklaridagi Pushkin haqiqiy Pushkin oldida xijolatdan o'lay desa kerak. Chunki u shu

qadar g'arib berilgan. Darslikdagi she'rlarni o'qiyotib, iloji boricha, boshimni ko'tarmaslikka urinaman. Ko'tarsam, shoirni istehzoli nigohlariga duch kelishdan qo'rqaman. Va ming, millioninchi bor onamdan minnatdor bo'laman. Pushkinning buyukligini avval onamning ko'zlari, so'zlaridan ko'rganman-ku. Men shoir she'rlariga kirganimda onam baxtinga u-bu deb so'rayvermasdilar. Men Pushkinni savollarsiz o'qishni sevardim. Ayniqsa, yolg'iz o'qishni. Yolg'izlikda she'rning tovushlari jonlanadi. Men har nafasni yuragim ustida his etaman. Fikrlarni, hissiyotlarni ushlab ko'ra olaman, qorachig'larimga bosaman, kaftlarimda silayman.

Dardkashim, do'stinga aylanadi

Dalibosh degani iblis. Iblisligi uchun qizil. Chir aylanishni ham iblislar qoyillatadi. Kazak yer yuzida boshqa durustroq urushuvchi qolmaganday shu iblislar bilan olishadi.

Shu she'rni esladim deguncha 1924 yil Pragadagi bir voqeani eslab, tutunim chiqadi. Bir emas, ikki emas, bir varakayiga uchta talaba nima deydi deng? Dalibosh bu cherkasning bayrog'i emas, o'zi emish. Kechirib qo'yasiz. Ko'zingizni ochibroq o'qing Pushkinni. "Chir aylanar qizil dalibosh".

Bayroq emasmi shu chir aylanayotgan, goh unga, goh bunda yuzini burib? Iblis ham shuning o'zi emasmi? Bunday g'alati obrazli she'riyatni adabiyotchilar modernizm deyishadi. Ba'zi modernistlarni umuman anglab bo'lmaydi. Pushkinning moderni ham tushunarli. Ularni ko'zdan ham ko'ra yurak tezroq ilg'aydi.

Dalibosh, ya'ni iblis (bayroq ham shuning o'zi!) hilpiraydi, kazakning boshi yo'q. Ular bir-birining boshini yeyishgan:

B B B B Ey kazak! Jangdan saqlan!

B B B B Dalibosh qizil tig'li

B B B B Xanjar bilan beshafqat

B B B B Boshingni olar qasddan.

Bayroqning o'tli tig'i kazakning umuman, ko'p zamonlarda buyon ko'plarning boshini yegani haqiqat. Xullas, men Rossiyaning yetti yasharli qizchasi Rossiyaning eng jasur shoiri she'rlarini Praga talabalaridan ko'ra chuqurroq anglardim.

Qorabog'liklar. "Qorabog'liklar Bonapartni ko'radi". Qorabog'liklar va Bonapart. Bir-biridan juda uzoq bu nomlarning yonma-yon kelishi ham menga juda qiziq tuyulardi. Savollar miyamda g'ujg'on o'ynagan damlarda ham onamni bezovta qilavermasdim. O'zim topgan javoblarimga mahkam yopishardim. Ba'zi-ba'zidagina onamdan javoblarimning shilvirab turgan joylarini to'ldirishga intilardim.

- Oyi, Napoleon degan nimasi?

- Rostdan bilmaysanmi?

- Axir, hech kim hech qachon menga Napoleon haqida gapirib bermagan-ku?

- U osmonning odami. Hamisha osmonda osilib turadi.

Shu muloqotdan so'ng osilib turgan narsaga ko'zim tushsa, uni Napoleon bilan bog'lardim. "Osilib turmoq" iborasining o'zida qandaydir bir qora qismat bor edi. O'z ixtiyoridan tashqarilik, erksizlik, mahkumlik yashardi. Napoleon nimaga tasavvurlarda osilgan? Shuhratgami, toju-taxtgami, cheksiz hukumronlikkami?

O'ylarversang, toliqib ketasan. Lekin shu o'ylarning bari baland-pasti bilan meniki edi.

* * *

- Asya, Musya! Hozir bitta gap aytamaan! bo'ylari cho'zilib qolgan Andryusha (Andrey Ivanovich Svetaev (1890-1933) M.I.Svetaevaning akasi, san'atshunos). - Doktor Yarxo bor-ku, onamizni ko'rib qo'ydi, bilasanmi, sil bo'lganmish. Tezgina o'larmish. Keyin-chi, ko'zimizga oq kafanda ko'rinarmish. Qizig'-a?

Asya o'sha zahotiyog' ho'ngrab yubordi. Men qotib qoldim, oyoq-qo'lim muzladi. Andryusha esa bir oyoqlab hakkalardi. Onamni ko'rib, oyoq-qo'limga jon kirganday bo'ldi:

- Bolalar! Doktor Yarxonning fikricha, jiddiy davolanishim kerak emish. Dengiz bo'yiga boramiz mazzami?

- Yo'q. Kerakmas, dedi Asya hiqqillab: Andryusha u aytdiki, u Siz ko'zimizga oq kiyim im

- Aldama! dedi Andryusha baqirib. Oppoq kafanda deganman.

- Kiyimmi, kafanmi, bu gapni faqat sen aytgansan, Andryusha!

Chunki qulog'ingga tushganni darrov og'zingga chiqarish faqt sening qo'lingdan keladi. Menga hech narsa bo'lgani yo'q, qizalog'im. Issiq jon, hamma kasal bo'ladi. Men esa sizlarni dengizga olib bormoqchiman.

Dengizga! Mening egizim - dengiz. Marina Mari More naqadar o'xshaydi bu ismlar. Faqat tovushlari, ohanglarigina emas, bir olmaning ikki pallasiga o'xshardik dengiz ikkovimiz.

1902 yil. Men Pushkinning "Dengiz"ini adabiyot darsligidan qo'lbola kitobchamga ko'chirib oldim.

Men birdaniga boyib ketganday baxtiyor edim. Axir qo'ynimda Pushkinning "Dengiz"i shovullab yotardi. Ammo buni hech kimga bildirgim kelmasdi. Birovga aytсам sirimning shirinligi to'kilib ketadiganday tuyulardi.

Oh! "Dengiz"ni ko'chirgan paytlarim undan-da totli, undan-da hayajonliroq edi. Yolg'iz panjaralariga gullar chirmashgan balkonda muk tushib o'tiraman. Dengizni qo'lbola kitobchaga sig'dirmoqchi bo'laman. Qo'llarim, ko'zimning nuri to'lqinlarga aylanadi. Shunday shovullaymizki! Hayajondan qalamim egilib-egilib ketadi.

Ba'zan yozganlarim o'zimga birdaniga yoqmay qoladi. Qog'ozlarni g'ijimlab otaman. Hammasini boshqatdan boshlayman. Yana o'sha alanga, o'sha yonishlar. "B Alvido zo'r qudrat, asov g'alayon!"

- Alvido! Ilhom dengiziga nega alvido deydi u? Chunki jon-dili bilan sevadi. Sevgi bor joyda ayriliq bor, vido bor. Vidoning armoni ham ulkan. Qalbim bir daqiqaga bo'lsa-da sokin yashay olmaydi. O'zim uning ehtiroslari izidan yugurganim yugurgan.

U tomonga talpinar yurak

U tomon degani qayda ekan? Okaning narigi qirg'og'imikini? Xolam bir paytlar shivirlab gapirib berardi. O'sha tarafda qop-qorong'i tunlarda qorovullar ohista kuylashar ekan. Qaysi xonadonni chirog'i yoniq, yorug' bo'lsa kelib, olib ketishar ekan. Olib ketilganlar esa deyarli qaytib kelmaydi.

Men bu narsaning dahshatini butun vujudim bilan his etsam - da, narigi sohilga qiziqaveraman. O'sha tarafga o'tsam, boshqa odamga aylanib qolgandayman. Ismimni ham Katyami yo Rogneda deb o'zgartirishadiganday

Shunday deymanu o'ylarimdan qo'rqib ketaman. Axir, men o'z ismimsiz, ota-onamsiz, Asya, Andryushasiz yashay olarmidim?

B B B B Sen kutding, chorlading men kishandaydim,

B B B B Ruhim qanotlandi bekordan bekor.

B B B B Qudratli orzuga maftun bandaydim,

B B B B Shu sabab men qoldim qirg'oqlarda zor.

Pushkin ham menday dengizni sevgan. Tosh qirg'oqlarga urilib, uvlab iziga qaytayotgan, balandga sapchib, yana yiqilayotgan to'lqinlarga uzoq termulib turgan

Qirg'oqlarda qolib ketdim zor

Xuddi sevgilimday tanish sog'inch, tanish intizorlik.

B B B B U bitta qoyadir-shon sag'anasi,

B B B B U yerda uxlaydi sovuq uyquda

B B B B Ulkan xotiralar hammasi

B B B B Napoleon hayoti so'ngan yer shu-da.

Sag'ana, tosh, Napoleon. Bir-birini jon-jahdi bilan rad etuvchi tushunchalar. Agar men bu satrlarni ilgariroq o'qiganimda edi, onaizorimni: "Napoleon kim?" deb qiynab o'tirmagan bo'lardim.

- U yerda azobda bo'ldi u halok,

B B B B Uning orqasidan dovul singari

B B B B O'zga daho uchdi, dilni aylab chok

B B B B Aqlimizning o'zga bir hukmdori.

B B B B Kim edi o'sha? Bayron!

B B B B Shovqin sol po'rtana, uni ulug'lab,

B B B B U sening qo'shiqching edi-ku, dengiz!

Ko'zlarimda yoshlar tirqiraydi. "Alvido, ey, dengiz, unutmayman hech"

Dengiz bilan har kim ham vidolashmas. Dengizga har kim ham va'dalar bermas. Men ham bir zamonlar Tarusamizdan chiqib ketayotganimizda xuddi shunday yig'lagan edim. Archalar, qayinlar, yong'oqlarimga, daryomga vido so'zlarini titrab-titranib aytgandim.

B B B B O'rmonlar va jimjit sahrolar tomon

B B B B Yorqin xotiralar ola ketaman.

B B B B Qoyalar, ko'rfazlar, to'lqin va suron

B B B B Soya, jilg'alaring yodda tutaman.

B B B B Pushkin, mening Pushkinim!

Dengizlarni quchoqlab yillardan-yillarga o'tadi. To'lqinlari shovullaydi, uzoq-yaqinlarni uyg'otadi, harakatga keltiradi. Shoir bag'ridagi dengiz osmonga ham o'xshaydi. Osmonda chaqmoqlar qarsillab, momaqaldiroqlar guldurayotganday. Mening dengizim Pushkin. Osmonim Pushkin.

* * *

O'sha 1902 yil noyabr oxirlarida onam yotog'imizga kirib "Dengiz" deganlarida dunyodagi eng chiroyli so'z shu, deb o'ylagandim. Shu so'zdan onamning yuzlariga, yotoqxonamizga, mening yuragimga shu'la taralgan edi. Shu lahzadan boshlab yuragim chag'alay bo'ldi. Tunda, tongda, oqshomda qaysi soat, qaysi kun bo'lmasin o'ylagan o'ylarim meni dengizga yetaklab ketardi. "Dengizga ketamiz" derdim. Tovushimdan uchqunlar sachrardi. Tovushim go'zal edi. O'zim qattiq ishonardim tovushlarimga. "Keling, orzulashaylik". Bu so'zim ham "Dengizga ketamiz" kabi aziz edi menga. Onam tinimsiz yo'talardi, og'ir hansirar, zo'riqib nafas olardi. O'tinchim ichimga cho'kib ketardi. "Keling, orzulashaylik"ning "k-ez"lari sinib-sinib, parchalanib-parchalanib ichimga cho'kardi.

Mening orzularim - yolg'iz orol. Hayotning shafqatsiz qonunlari esa orolimga muttasil hujum qiluvchi vahshiy ajdaho ekanin payqadam. Payqamagan chog'larim juda yosh edim. Anglab yetgunimcha umr o'tibdi.

- Asya, kel, xayol suramiz! Yo'q dema, jon singilcham, bir zungina, bir nafasgina.

- Xayol surish jonimga tegdi! Yaxshisi, rasm chizaman.

- Men senga Seryojani beraman (Seryoja deganim tuxum).

- Ishonib bo'pman! Allaqachon pachog'ini chiqargansan!

- Po'chog'i sag'al darz ketgan, xolos. Ichi but-butun, mana qara

- Mayli, deydi Asya xo'rsinib, orzu qilsak, qilibmiz. Ammo rosa rasm chizgim kelayotgan edi.

Tuxumni bergan zahoti qaytarib olaman. Chunki Asyagina xayol surish, orzu qilishga toqati yo'q. Nari borsa qayroq toshlar, chig'anoqlar deydi Uning fikricha, bu zerikarli mashg'ulot emish. Xohlamasmish!

Oh, men-chi! Dengiz orzusiga tushganimda qanday hayqiraman, qanchalar shovullayman! Tuyg'ularim qon tomirlarimni yorib yuboray deydi.

Valeriya Asyadan boshqacharoq. U katta opam. Valeriya Qrim, Qora dengiz, Parilar, Darveshlar cho'qqisi haqida menga ajabtovur tushuntirishlar qiladi. Tatarcha tuflilaru, dala hovlilar haqida ham yaxshigina ma'lumotlarga ega edim. Ammo uning suhbatida zarracha yomonlik bo'lmasa-da, yuragim siqilardi.

U mening "men"larimdan yiroq narsalar edi. Axir, men Asyadan, Valeriyadan, uy xodimimiz Genrixova, oqsoch Arishadan nima istadim?

Istaganim, izlaganim Tver xiyobonidagi Pushkin haykali atrofidagi zanjirlangan erk isyonlarimidi? Yo'q. Ular hamisha mening yuragimda edi. Yo'qsa, nega hissiyotlarim bunchalar chopardi, bu qadar uchardi? Nimaga yetolmasdim? Neni tutolmasdim! Pushkinga chorlovlarnimi, vidolarnimi?

* * *

Kutaverib, toqatim toq bo'ldi. Qachon safarga chiqamiz? Qa-chon? Sabrimning so'ngi tomchisi uzilay-uzilay deb turganimda Nadya Ilovoyskaya (M.I.Svetaevaning otasining birinchi xotini V.D.Ilovayskoyning qarindoshlaridan biri) tashrif qog'ozi keldi. Dengizga taklifnoma! Umrim bo'yi bu qadar chiroyli qog'ozni ko'rmagan edim. Ko'kish tusli qayinlar, qorong'ulikdan qochayotgan osmon, yupqa tortayotgan bulutlar, porillayotgan oy, cho'qqilardan boshlangan dengiz suvrati bor edi taklifnomada. Undagi har chizgi: - "Tezroq kelinglar!" - deya chorlayotganday edi.

Bir pasda men bu mo'v'bjizakor qog'ozni xo'jayiniga aylandim. Qo'limga ham, ko'zimga ham ishonmayman uni. Birovga berib qo'ysa-ya, birovga ko'rsatib qo'ysa-ya, degan xavotir doim yonimda pichirlab turadi Ko'rsam, bersam bu mo'v'bjizakor qog'ozni

sehri zaiflashadiganday

Uni eng sevimli kitoblarimning eng sevimli sahifalariga bekitib qo'yaman. Bekitib qo'ygan joylarimdan dengiz shovullab turadi. Men, faqat o'zimgina bu qudratli tovushlarni eshitaman. Eh, qanchalar ajoyib edi o'sha damlar! Chinakamiga hayot desa bo'lardi o'sha kunlarni. Orzularim, quvonchlarim bir lahzaga bo'lsa-da kichraymadi, ulkanlashgandan ulkanlashaveradi. Men umrimning bunday lahzalarini hech qachon esimdan chiqarmayman. Musya, Marina faqat ana shunday kunlarda yashagan, qolgan damlarda

* * *

- Asya, Musya, qaranglar dengiz!

- Qani?

- Ana, ana-ku!

"Ana"ga o'zimizni tashlaguday termulamiz. O'rmon deyishga mutlaqo arzimaydigan yog'ochzor, pastroqda bir tekis suv, xuddi ko'piraverganidan kimdir sapchigan to'lqinlarimga boshlarini shart uzib tashlaganday tep-tekis. Asya ikkovimizning hafsalamiz pir bo'ldi. Onam bir qarashdayoq buni his qildilar:

- Bu - Genues qo'ltig'i. Suvning shiddati bu joyda hamisha pasayadi. Chinakam dengizni ertaga ko'rasizlar, dedi onam.

Ertalab ertalarga ulanaverdi. Ammo dengizga boradigan yo'l ko'rinmasdi. Qaysi yo'lga tushsak ham bizni torgina ko'chada qo'nishib turgan mehmonxonaga yo unga yopishtirib qurilgan uylar tizimiga boshlab borardi. "Dengiz"ga qaragim kelmasdi, chunki uning qo'ltiq ekanini allaqachon bilib olgan edim.

Ammo haqiqiy dengiz sira xayolimdan ketmasdi. Qo'llarim, ko'zlarim, yuzlarimda hayqirardi bu dengiz. Ammo har narsaning ko'tarilishi, balandligi, tushkin lahzalari bo'lganidek dengizga bo'lgan ishonch, ishtiyoqim ham ohista so'na boshladi. Otam onamning issig'ini o'lchab: "Bolakaylar, nihoyat bugun kechqurun degizni ko'rasizlar", degani menga oddiygina "Uxlab turasizlar" degandek eshitildi.

Bilsam, bu bekorga emas ekan. Bir-ikki soat o'tar-o'tmas uyimizdagi vazit o'zgardi. Ko'chishimizga to'g'ri keldi. Butun kuchimiz parronlardagi kutishga, yuk tushirib, kiritishga, "Rus pansionati"ga yetib kelishga yem bo'ldi. Shungacha tun yarimladiyu onamning issig'i ko'tarilib ketdi, axvoli og'irlashdi.

Onamning tepasida turib, dengizga bo'lgan sevgim, sog'inchimni yomon ko'rib ketdim. Undan ko'ra, Yaratgan egamga onam uchun iltijolar qilsam bo'lmasmidi? Onajonim, men endi dengiz bilan diydorni emas, Xudodan sizning joningiz, aziz joningizni so'rayman

Bu iltijom qanchalik chin bo'lmasin, meni ko'rinmas bir qudrat dengiz bilan abadiy bog'lagan edi.

Mana, u! Dengiz. Oramizda tun. Ikkovimiz tunning ikki qirg'og'idamiz. Tong otgandagina men Dengiz bilan tutashaman. Balki u ham menga sevgilisiga intilganday intilgandir. Balki to'lqinlar tunning qora ko'zlaridan o'pib: "Marina, Marina!" deya ehtirosli shivirlagandir. Meni kutgandir, sog'ingandir. O, xudojon-ey, axir men ham dengizni ehtiyojiman-ku. Ikkovimiz ham ehtiyoj bolalarimiz.

Bilasizmi, aynan shu qabatimda meni hamma tushunayotganday o'xshaydi. Dunyo dengizlanganday, bo'ronmi, po'rtnami bosib kelayotganday.

Bu tasavvur emas, bu qattiq istak. Axir, hammasi shu holicha, sukunatda abadiy qolishi mumkin emas-ku. Sukunat ham jaranglaydi-ku, gulduros soladi-ku.

* * *

Hidini sezyapsanmi? Oh, oh! dedi Valeriya tongda.

Sezmay bo'larkanmi? Dengiz hidi gurkirab ketdi. Tashrifnomadagi suvratiga termulib quvonchdan yuragim yorilay degandi Qani, men kutgan dengizmi shu? Nega ruhim jismnigina yechib tashlab, oppoq to'lqinlariga qo'shilib guvillamaydi? Nega she'r quyulib kelavermaydi, nega oddiy hayajon?

Balki, mening kutganim boshqacha dengizdir Ha-a

* * *

Eng avval ko'zlarim chiqib ketdi dengizga vujudimni tashlab. (Oradan o'n sakkiz yil o'tgach, men Blokka xuddi shunday ko'z bilan termulganman).

- Bu cho'qqining nomi rosayam qiziq, Baqa uy egasining o'g'li Volodya bizni yon-atrof bilan tanishtira boshladi.

Bizdan bir qadamcha narida - suv! Qayroq toshlar yarqiraydi.

- Pastda g'or bor, bu joylarning bari bizniki. Ehtiyot bo'linglar, yiqilib tushmanglar. Aksiga olganday, yo'l ko'rsatuvchimiz gapini tugatar-tugatmas, yiqilib tushamiz. Boshdan-oyog'imiz shalabbo bo'ladi. Volodya surgalaklab olib chiqib toshga o'tqazadi.

Ko'ylaklarimni quritgim kelmaydi. Asya bilan Volodya tosh terishga tushib ketishgan. Men esa butun borlig'im bilan suvga tikilaman. Yarqiraydi. Sinadi, butunlanadi. Cho'qqiga uzayib, barmog'im uchida yoza boshlayman.

Alvido, ey asov g'alayon!

So'zlar cho'qqiga sig'maydi, pastga tushaman. Yaqin atrofda yozsa bo'ladigan silliq joy yo'q. Harflarni siqishtiraman. Shamol qo'zg'aladi. To'lqinlar chopra boshlaydi. Men esa to'lqin yetib kelguncha yozib tugataman:

- ALEKSANDR SERGEEVICH PUSHKIN

Ammo to'lqin tillarini osiltirib yugurib keladi, harflarimni yuvib yuboradi. Qop-qora tosh bilan yolg'iz qolaman.

* * *

Dengizga uzoq ntilgan bo'lsam ham ilk uchrashuvdanoq sevib qolganim yo'q. Hammasi asta-sekinlik bilan yuz berdi. Qayroq toshchalar terib dengizga tashlayman. Takrorlardan nimanidir qattiq kutaman.

Oradan o'ttiz yil o'tgach, bildimki, dengiz bu suvloq emas. Aleksandr Sergeevichning dunyosi ekan. Men bu g'alayonli dunyoga yolg'iz o'zim emas Bayron, Napoleon bilan, tun orzulari, kunduzning ishonchlari bilan intilgan ekanman. Keyinchalik O'rtaer dengiz bo'ylari, Qora dengiz, Baqalar cho'qqisi, Atlantida ummoni deya atalgan ulkan suvloqlarda ham o'sha murg'ak paytimdagi tashrifnomadagidek poyonsiz dengiz ko'rmadim.

B B B B Dengiz va Pushkin tasavurimda mudom yonma-yon yashadi.

B B B B Dengiz Pushkinni kutadi.

This is not registered version of TotalDocConverter

Tasavvurim shu qadar cheksiz ediki, doim bu cheksizlikda shoshib, otashlanib, adashib yurardim. Shu otashlanish, adashish o'zim uchun qanchalar yoqimli ekanini aytib tushuntira olmayman.

Men cho'qqiga qayta-qayta "Alvido, ey asov g'alayon" deb yozdim. Ammo bu vido mendagi g'alayonning intihosi emas, ibtidosi edi. Men jonajon dengizim Pushkin dunyosida muttasil g'oliblikni o'rgandim, qo'rquvni unutdim. Zulm, o'lim bari-bari dengiz to'lqinlarida yuvilib ketajak, yitajak xas-cho'pga o'xshab tuyuldi.

Meni ana shu xayolot ulg'aytirdi, yuraklantirdi. To'lqinlar gulduros solib, tonggi, shomgi shafaqLar aksida yolqinlanib, men bilan yillardan-yillarga o'taveradi. She'riyat, she'riyatim o'zim Dengizga qo'shila boshladim. Shunda qanchadir sevganim vido so'zining kuchi zaiflashganini his etdim. "Salom"ga ishq, ishonch bog'ladim. Har erk sog'inchi, har qullikka isyon, har qo'zg'olish, har guldurosda ufg'on boshladim.

Uy-g'o-na boshladim.

1937